

XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O‘RTACHA ISH HAQQI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-mart holatiga viloyat doimiy aholisining soni 3 913,4 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 79,3 ming kishiga yoki 2,1 foizga ko‘paydi. Shundan, 2 197,7 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 56,2 foizi) va 1 715,7 ming kishi – qishloq joylarida (43,8 foizi) istiqomat qiladi.

Viloyat hududi va aholi zichligi (2022- yil 1-aprel holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
Viloyat bo‘yicha	15.01.1938	6,759	3 913,4	579,0
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	1877 y.	0,100	300,7	2998,0
Qo‘qon	X asr	0,037	260,9	7051,4
Quvasoy	14.06.1954 y.	0,264	97,3	368,6
Marg‘ilon	X asr	0,041	243,4	5936,6
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926 y.	0,631	220,1	348,8
Qo‘shtepa	16.04.1952 y.	0,368	199,5	542,1
Bog‘dod	31.12.1964 y.	0,333	224,3	673,6
Buvayda	26.12.1973 y.	0,279	237,2	850,2
Beshariq	29.09.1926 y.	0,774	235,3	304,0
Quva	10.02.1939 y.	0,438	267,0	609,6
Uchko‘prik	29.09.1926 y.	0,275	238,5	867,3
Rishton	09.01.1967 y.	0,307	209,2	681,4
So‘x	27.02.1990 y.	0,221	80,8	365,6
Toshloq	12.04.1973 y.	0,243	210,8	867,5
O‘zbekiston	17.04.1963 y.	0,689	247,3	358,9
Farg‘ona	22.02.1964 y.	0,612	222,0	352,9
Dang‘ara	07.12.1970 y.	0,435	181,6	417,5
Furqat	09.04.1992 y.	0,305	122,3	401,0
Yozyovon	27.12.1980 y.	0,407	115,2	283,0

Farg‘ona viloyatining ma‘muriy-hududiy tashkil topishi 1938-yilning 15-yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,8 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh hamda Batken viloyatlari va g‘arbdan Tojikiston Respublikasining Xo‘jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyaning So‘x tumani hamda Farg‘ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho‘ng‘ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg‘iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Viloyat ma‘muriy hududiy bo‘linishiga ko‘ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 197 ta shahar tipidagi posyolkalar, 1 227 ta aholi yashash punktlari hamda 1 041 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan tashkil topib, ularda 3 834,1 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma‘muriy markazi Farg‘ona shahri.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog‘ tizmalari Farg‘ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to‘stib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo‘tadil. Yozi issiq, iyulning o‘rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o‘rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o‘rtacha yog‘in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.

Tuproqlari bo‘z, qo‘ng‘ir, o‘tloqi, botqoq tuproqlar, qumtosh, mergel chaqirtoshlardan iborat bo‘lib, ekin ekilmaydigan tekisliklar qismida turli o‘simliklar, tog‘ yon bag‘irlarida pista, bodom o‘sadi. Yovvoyi hayvonlar (bo‘ri, tulki, qobon va boshqalar) kam uchraydi, sudraluvchilar, kemiruvchilar, qushlar, suv havzalarida baliqchiliklar bor.


Geografik joylashuvi, tabiiy, mineral xom-ashyo resurslarining mavjudligi viloyatda azotli va fosforli o‘g‘itlar, neft mahsulotlari, ohaktosh, sog‘ tuproqlar (g‘isht, cherepitsa uchun xom-ashyo), marmar, sement xom-ashyosi, shag‘al, yengil sanoat, xususan to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish uchun yanada qulaydir. Viloyatda foydali qazilmalarning 43 turi aniqlangan bo‘lib, ulardan 21 tasi o‘zlashtirilmoqda.

Farg‘ona viloyati hududlari
bo‘yicha doimiy aholi soni to‘g‘risida ma’lumot
(2022- yilning 1-aprel holatiga)

	<i>Doimiy aholi soni, ming kishi</i>			<i>Doimiy aholi sonining o‘shish sur‘ati, foizda</i>		
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>jami</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>
Farg‘ona viloyati	3 913,4	2197,7	1715,7	102,1	56,2	43,8
<i>shaharlar:</i>						
Farg‘ona	300,7	300,7	-	102,0	100,0	-
Qo‘qon	260,9	260,9	-	101,5	100,0	-
Quvasoy	97,3	54,7	42,6	102,0	56,2	43,8
Marg‘ilon	243,4	243,4	-	101,6	100,0	-
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	220,1	165,7	54,4	102,2	75,3	24,7
Qo‘shtepa	199,5	76,8	122,7	102,7	38,5	61,5
Bog‘dod	224,3	114,8	109,4	102,1	51,2	48,8
Buvayda	237,2	111,0	126,2	102,3	46,8	53,2
Beshariq	235,3	82,6	152,6	101,7	35,1	64,9
Quva	267,0	123,6	143,5	101,9	46,3	53,7
Uchko‘prik	238,5	43,5	195,1	102,4	18,2	81,8
Rishton	209,2	133,5	75,7	102,0	63,8	36,2
So‘x	80,8	51,2	29,6	101,6	63,4	36,6
Toshloq	210,8	48,7	162,1	102,3	23,1	76,9
O‘zbekiston	247,3	106,9	140,3	101,9	43,2	56,8
Farg‘ona	222,0	139,3	82,7	102,2	62,8	37,2
Dang‘ara	181,6	42,4	139,3	102,5	23,3	76,7
Furqat	122,3	28,8	93,6	102,2	23,5	76,5
Yozyovon	115,2	69,2	46,0	102,3	60,1	39,9

Shaharlar ichida eng ko‘p aholi Farg‘ona shahrida 300,7 ming kishi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 foizga o‘sgan) va tumanlarda eng ko‘p aholi Quva tumanida bo‘lib 267,0 ming kishini tashkil qiladi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 foizga o‘sgan).

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2022- yil 1- aprel holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)



Yanvar-mart oylarida viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari


<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>ming kishi</i>		<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>
Tug‘ilganlar	19,7	22,0	20,9	22,8
O‘lganlar	4,4	4,3	4,6	4,5
<i>shu jumladan bir yoshgacha bolalar</i>				
Nikohlar, <i>mingta</i>	5,9	5,3	6,3	5,5
Ajralishlar, <i>mingta</i>	1,0	1,2	1,1	1,2

Tug‘ilish darajasi. 2022- yilning yanvar-mart oylari tug‘ilganlar soni 22,0 ming kishini tashkil etdi va 2021- yilning shu davriga (19,7 ming kishi) nisbatan 2,3 ming kishiga ko‘paydi, shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 22,8 promilleni tashkil qildi.

Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning Sux tumanida 0,3 dan 16,6 promille, Oltiariq tumanida 1,3 dan 23,5 promille, Uchko‘prik tumanida 1,5 dan 25,7 promillega, Qo‘shtepa tumanida 1,3 dan 25,9 promillega, Kuvasoy shahrida 0,5 dan 22,3 promillega kuzatildi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2022- yilning yanvar-mart xolatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))




O'lim darajasi. 2022-yilning yanvar-mart oylarida o'lganlar soni 4330 kishini tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (4369 kishi) nisbatan 39 kishiga ko'maydi. Mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil qildi (2021-yil yanvar-mart oylarida 4,6 promille).

O'lganlar sonining kamayishi viloyatimizning har bir shahar va tumanida yuz bergan bo'lib, eng ko'p kamayish Beshariq tumanida 34 kishini dan 3,5 promille, Buvayda tumanida 50 kishini dan 3,2 promillega kuzatildi, Furqat tumanida 57 kishini dan 3,1 promille, Uchko'prik tumanida 40 kishini dan 3,7 promille, Oltiariq tumanida 31 kishini dan 3,8 promille.

O'lganlar umumiy sonining 66,3 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,6 foizi o'sma kasalliklaridan, 3,9 foizi ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 5,2 foizi baxtsiz xodisadan, 8,2 foizi nafas olish organlari kasalliklaridan vafot etgan.

O'lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzilishi

(2022- yilning 1-aprel holatiga, foizda)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida bir yoshga to'lmagan 257 ta bolalar o'limi kuzatildi. Go'daklar o'limi koeffitsiyenti 10,4 promilleni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-mart 7,6 promille).

Bir yoshgacha o'lgan bolalar umumiy sonining 32,7 foizi perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 11,3 foizi tug'ma anomaliyalardan, 35,8 foizi nafas olish organlari kasalliklaridan, 3,5 foizi infeksiya va parazit kasalliklaridan va 4,7 foizi baxtsiz hodisa, zaxarlanish va shikastlanish oqibatida vafot etgan.

Nikohlar va ajralishlar. 2022- yilning yanvar-mart oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo'limlarida 5342 ta nikohlar va 1172 ta ajralishlar ro'yhatga olindi. Ming aholiga nisbatan 5,3 ta nikoh (2021- yilning tegishli davrida 0,5 ta) va 1,2 ta ajralishlar (2021- yilning tegishli davrida – 0,2) to'g'ri keladi.

**Yanvar–mart oylarida tuzilgan nikohlar
va nikohdan ajralishlar soni**

(birlikda)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>
Viloyat	5 902	5 342	1 000	1 172
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	433	332	149	178
Qo'qon	415	352	119	123
Quvasoy	127	111	25	33
Marg'ilon	246	233	54	70
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	364	316	45	56
Qo'shtepa	214	202	49	64
Bog'dod	398	305	51	60
Buvayda	332	315	48	58
Beshariq	495	434	37	38
Quva	354	383	46	52
Uchko'prik	374	302	74	49
Rishton	336	340	33	57
So'x	197	239	28	23
Toshloq	226	204	45	41
O'zbekiston	402	394	61	68
Farg'ona	390	332	44	83
Dang'ara	260	259	53	60
Furqat	197	191	23	22
Yozyovon	142	98	16	27

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatga ko'chib kelganlar soni 2 411 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 3 015 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 604 kishiga (2021- yilning shu davrida – minus 1216 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Marg'ilon shahri (minus 190) va Qo'qon shahrida (minus 137) kuzatildi.

Yanvar–mart oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari
(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldosi</i>	
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>
Viloyat	3 112	2 411	4 328	3 015	-1216	-604
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	988	737	676	521	312	216
Qo'qon	151	153	390	290	-239	-137
Quvasoy	210	142	105	104	105	38
Mapg'ilon	90	30	481	220	-391	-190
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	81	31	152	120	-71	-89
Qo'shtepa	226	178	181	116	45	62
Bog'dod	92	30	206	100	-114	-70
Buvayda	57	84	184	131	-127	-47
Beshariq	88	58	243	171	-155	-113
Quva	58	38	242	148	-184	-110
Uchko'prik	92	119	202	167	-110	-48
Rishton	90	59	182	96	-92	-37
So'x	37	16	21	10	16	6
Toshloq	146	104	170	102	-24	2
O'zbekiston	11	133	233	199	-222	-66
Farg'ona	279	193	249	205	24	-12
Dang'ara	219	158	170	145	49	13
Furqat	134	114	146	123	-12	-9
Yozyovon	69	34	95	47	-26	-13

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar–mart oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 188,9 ming so'mni tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga nisbatan 2,6 foizga oshdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shaharda 2 795,3 ming so'mni, Qo'qon shaharda 2 352,3 ming so'mga to'g'ri keldi.